



ZAMONAVIY OAV MUHITIDA JURNALISTLAR UCHUN  
YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR: IMKONIYAT VA TAHDIDLAR  
TAHLILI

*Sayfiddinova Durdona Nurbek qizi*

*Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan*

*“Ilk qadam” klubi a’zosi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida jurnalistlarga yaratilayotgan yangi imkoniyatlar va ular duch kelayotgan tahdidlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, O’zbekiston misolida so‘z erkinligi, qonuniy kafolatlar, malaka oshirish kurslari, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro hamkorliklar orqali jurnalistlar uchun ochilayotgan yangi ufqlar yoritiladi. Shu bilan birga, ularning mustaqil faoliyatiga to’sqinlik qilayotgan omillar, axborot xurujlari, siyosiy bosimlar va senzura muammolari ham o’rganiladi. Maqolada mavjud imkoniyatlar va tahdidlar muvozanati asosida jurnalistikani yanada rivojlantrish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** journalist, OAV, imkoniyat, tahdid, axborot erkinligi, texnologiyalar, senzura, media siyosati, O’zbekiston, raqamli jurnalistika

So‘nggi yillarda O’zbekiston va butun dunyoda jurnalistika sohasi tub islohotlar va jadal texnologik o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi jurnalistlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochdi: masofaviy ishslash, tezkor axborot almashinushi, global auditoriyaga chiqish va shaxsiy media platformalar yaratish imkoni mavjud bo‘ldi.

Bundan tashqari, davlat tomonidan jurnalistlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator qonunchilik hujjatlari, grantlar, xalqaro hamkorliklar va trening dasturlari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, O’zbekistonda so‘z erkinligiga doir islohotlar jurnalistlar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlab bormoqda.



Biroq imkoniyatlar bilan bir qatorda tahdidlar ham ortmoqda. Axborot urushlari, yolg'on xabarlar, bosimlar, senzura va xavfsizlik bilan bog'liq masalalar jurnalistlarning erkin va mustaqil faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, zamonaviy OAV muhitida jurnalistlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va duch kelayotgan tahdidlarni chuqur tahlil qilish dolzarb vazifalardan biridir.

Bugungi globallashuv va tezkor axborotlar zamonida jurnalistlarga yaratilayotgan imkoniyatlar ularning nafaqat kasbiy mahoratini oshirish, balki jamiyatdagi o'rmini mustahkamlashda ham muhim rol o'ynameqda. O'zbekiston misolida olib qaralganda, so'nggi yillarda ommaviy axborot vositalariga, xususan, jurnalistlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanib, davlat miqyosida ularning erkin faoliyat yuritishiga huquqiy va moddiy asoslar yaratilmoqda.

Avvalo, so'z erkinligi masalasi yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyati kafolatlangan bo'lib, bu jurnalistlarga o'z fikrini ochiq aytish, mustaqil tadqiqotlar olib borish va ijtimoiy muammolarni ko'tarishda yuridik tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, jurnalistlar uchun malaka oshirish tizimi, treninglar va xalqaro tajriba almashinushi imkoniyatlari kengaymoqda. Davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida o'tkazilayotgan seminar va amaliy mashg'ulotlar zamonaviy jurnalistik ko'nikmalar – fact-cheking, multimediali material tayyorlash, kontentni vizuallashtirish, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatish kabi yondashuvlarni o'rgatmoqda. Bu esa jurnalistlarning zamon bilan hamnafas bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilinayotgan grantlar va stipendiyalar jurnalistlarga xorijda tahsil olish, malaka oshirish yoki amaliyot o'tash imkonini bermoqda. Masalan, YUNESKO, OSCE, Internews kabi tashkilotlar O'zbekistondagi jurnalistlar uchun maxsus dasturlar orqali qo'llab-quvvatlovchi tashabbuslar bilan chiqmoqda.



Zamonaviy raqamli texnologiyalar ham jurnalistlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Bloglar, podkastlar, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar jurnalistlarga o‘z fikr va materiallarini keng auditoriyaga tezkor yetkazish, interaktiv muhokama olib borish va jamiyat fikrini shakllantirish imkonini bermoqda. Bu esa ularning jamoatchilik bilan yanada yaqinroq ishlashiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, milliy va xalqaro miqyosdagi mukofotlar, tanlovlar va jurnalistik loyihalar orqali jurnalistlar faoliyati e’tirof etilmoqda. “Oltin qalam” milliy mukofoti, “Eng yaxshi jurnalistik tadqiqot” kabi tanlovlar nafaqat jurnalistlar salohiyatini oolib beradi, balki ularni yangi g‘oyalar bilan ilhomlanadiradi.

Ayni vaqtida, jurnalistlar duch kelayotgan muammolar va tahidilar ham mavjud. Jumladan, ayrim hollarda senzura, ma’lumot manbalarining yopiq bo‘lishi, xavfsizlik muammolari, feyk xabarlar va axborot hujumlari jurnalistlarning faoliyatini cheklaydi. Shu sababli, imkoniyatlar bilan bir qatorda, xavf-xatarlar ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Shunday bo‘lsa-da, bugungi islohotlar jarayonida jurnalistlarning roli kuchayib borayotgani, davlat bilan jamiyat o‘rtasida ko‘prik bo‘lish vazifasini bajarayotgani – OAVni haqiqatda “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga olib chiqmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “OAV so‘zda emas, amalda to‘rtinchi hokimiyatga aylanishi kerak” degan fikrlari ham bu soha rivojida davlat darajasidagi yondashuv borligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda jurnalistlarga yaratilayotgan imkoniyatlar ularning kasbiy rivojlanishi, mustaqil faoliyat yuritishi va jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. So‘z erkinligi, ochiqlik va shaffoflikka asoslangan davlat siyosati OAV uchun keng yo‘l oolib bermoqda. Xalqaro hamkorlik, raqamli texnologiyalar, grantlar, treninglar va mukofotlar jurnalistlarni rag‘batlantirish, ularni yangi yutuqlarga ilhomlanirish vositasiga aylangan.

Shuningdek, jurnalistlar bugun nafaqat axborotni tarqatuvchi, balki uni tahlil qiluvchi, jamiyatga ta’sir ko‘rsatuvchi kuchga ega bo‘lgan ijodkor va mutaxassis sifatida shakllanmoqda. Shunday bir muhim davrda, yaratilgan imkoniyatlardan



oqilona foydalanish, kasbiy mas’uliyatni anglash va halol, xolis jurnalistika tamoyillariga sodiq qolish – har bir jurnalistning eng muhim vazifasidir.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ommaviy axborot vositalarining roli ortib borayotgani – demokratik jamiyat qurishdagi muhim bosqichlardan biridir. Shu bois, OAV vakillari – jurnalistlar doimiy izlanishda bo‘lib, jamiyat va davlat o‘rtasida axborot ko‘prigini mustahkamlashlari lozim. O‘zbekiston jurnalistikasi bugun yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ymoqda va bu yo‘lda yaratilayotgan imkoniyatlar eng katta ishonch belgisidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yilgi tahrir.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlari va murojaatnomalari. ([www.prezident.uz](http://www.prezident.uz))
3. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun. (Yangi tahrirda)
4. “Axborot erkinligi asoslari” – T. To‘laganova, Toshkent, 2021.
5. “Zamonaviy jurnalistika asoslari” – X. Nurmuxamedova, TATU nashriyoti, 2020.
6. Internews Uzbekistan materiallari va o‘quv qo‘llanmalari. ([www.internews.uz](http://www.internews.uz))
7. YUNESKO va OSCE’ning media erkinligiga oid xalqaro hisobotlari.
8. “Jurnalistika nazariyasi va amaliyoti” – A. Karimov, T., 2022.
9. OAV yangiliklari va maqolalari: [gazeta.uz](http://gazeta.uz), [kun.uz](http://kun.uz), [uza.uz](http://uza.uz)